

INKLYUZIV VA EKSTRAKTIV INSTITUTLARNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI ROLI: SHIMOLIY VA JANUBIY KOREYA MISOLIDA

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti

G'aniyev Asrorbek Barhayot o'g'li

asrorbekganiyev777@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada inklyuziv va ekstraktiv institutlarning mamlakat ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishidagi tutgan o'rni tahlil qilingan. Janubiy Koreyaning inklyuziv institutlar ortidan erishgan iqtisodiy taraqqiyoti, Shimoliy Koreya davlatining esa ekstraktiv institutsionalizm ta'sirida tanazzulga yuz tutish sabab va natijalari yoritib o'tiladi. Shuningdek, Daron Ajemo'g'lu va Jeyms A. Robinsonning tarixiy faktlar va tahlillarga asoslangan institutlar nazariyasi asosida Koreya yarimorolidagi iqtisodiy taraqqiyotning ulkan tafovuti sabablari izohlanadi. Natijada, inklyuziv institutlar qudrat va farovonlik manbayi ekanligi, ekstraktiv institutlar esa qoloqlik va iqtisodiy inqirozlarga olib kelishi xulosasi beriladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv institutlar, ekstraktiv institutlar, iqtisodiy rivojlanish, yuqori elita, quyi elita, inson kapitali

Kirish. Hozirgi kunda institutsionalizm iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Siyosat va iqtisodiyot o'rtasidagi bog'liqliklar, iqtisodiy tizimlar evolyutsiyasi, rejali va bozor iqtisodiyotini o'rganish, institutsionalizmning shu va boshqa xususiyatlari orasidagi o'xshashliklarni izlash turli mamlakat olimlarining e'tiborini jalb qilmoqda. Inklyuziv va ekstraktiv institutlar tizimi davlatlarning iqtisodiy va siyosiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Shimoliy va Janubiy Koreyaning iqtisodiy rivojlanishi bu institutlarning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rnini yaqqol namoyon etib beruvchi namuna hisoblanadi. Koreya yarimoroli XX asr o'rtalariga kelib ikki qismga ajralgani holda janubda inklyuziv iqtisodiy institutlarga asoslangan demokratik va bozor iqtisodiyotini yo'lga qo'yish orqali iqtisodiy taraqqiyotga erishilgan bo'lsa, aksincha, shimolda ekstraktiv tizim, yopiq va avtoritar boshqaruv shakllari joriy qilinib, bu iqtisodiy rivojlanishga ulkan to'siq bo'ldi. Ushbu maolada inklyuziv va ekstraktiv institutlarning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri, ularning nazariy asoslari, shuningdek, Shimoliy va Janubiy Koreya mamlakatlari misolida ularning natijalari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, iqtisodiy barqarorlik va taraqqiyotga erishish yo'lida qanday tizimlar yo'lga qo'yilishi kerakligi haqida fikr yuritiladi.

Metodologiya. Ushbu maqoladagi barcha ma'lumotlar World Bank, Macrotrends, Trading Economics, CEOWORLD magazine, Statista kabi elektron manbalar Daron Ajemo'glu va Jeyms A. Robinsonning "Mamlakatlar tanazzuli sabablari" kitobi asosida keltirilgan. Shu bilan birga, taqqoslashlar va ikkinchi darajali tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra bayon qilib o'tilgan.

Adabiyotlar sharhi. Ko'plab olimlar va mutaxassislar iqtisodiy institutlar ustida izlanishlar olib borgan. Xususan, 2024-yilgi iqtisod bo'yicha Nobel mukofoti sovrindorlari Daron Ajemo'g'li va Jeyms A. Robinsonlar o'zlarining "Mamlakatlar tanazzuli sabablari" kitobida ayrim mamlakatlarning farovonligi ularning iqlimi, geografik joylashuvi yoki madaniyatiga emas, aynan ulardagi institutlarga bog'liq ekanligini isbotlashga bel bog'lagan. Mualliflar ushbu kitobda Shimoliy va Janubiy Koreya iqtisodiyoti o'rtasidagi ulkan tafovut ulardagi ekstraktiv va inklyuziv institutlarga bog'liq ekanini tarixiy jarayonlar orqali bayon etgan.

Shuningdek, Abdullajonov Davronjon (Qo'qon universiteti, biznes kafedra o'qituvchisi) ham davlatlarning iqtisodiy o'sishida inklyuziv va ekstraktiv institutlarning o'rnini hamda dunyo mamlakatlari o'rtasidagi tengsizlik borasida izlanishlar olib borgan.


Natijalar va muhokama. Inklyuziv institut jamiyatdagi ko'plab kishilarga o'z iste'dod va qobiliyatlaridan samarali foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi va odamlarga o'z istaklari bo'yicha tanlov qilish imkonini beradi. Ekstraktiv institutlar esa buning mutlaqo teskarisidir. Bu Shimoliy va Janubiy Koreya mamlakatlari namunasida yaqqol namoyon bo'ladi. Janubda davlat iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi. Shuning uchun ishbilarmonlar banklar va moliyaviy tuzilmalardan qarzga pul olishi, chet el kompaniyalari mahalliy firmalar bilan hamkorlikka kirishishi, fuqarolar uy olish uchun ipoteka olishi mumkin. Umuman olganda, Janubiy Koreyada istalgan biznes turi bilan shug'ullanish imkoni mavjud. Shimolda esa unday emas. Janubda xodimlarni ishga yollash, mahsulot yoki xizmatlarni sotish va o'z pulingizni bozorda o'zingiz istagan tarzda sarflashga imkoniyat bor. Shimolda esa faqat qora bozorlar mavjud. Mana shunday turli xil qoidalar Shimoliy Koreya va Janubiy Koreya aholisi hayotini tartibga soladigan institutlardir.¹ Bundan ko'rinib turibdiki, ekstraktiv institutlar nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki jamiyatdagilarning inson kapitalidan samarali foydalanishiga ham to'sqinlik qiladi. Inklyuziv institutlar esa XX asrda yashab o'tgan iqtisodchi Y.Shumpeter tabiri bilan aytganda "bunyodkor buzg'unchi" tizimlar hisoblanadi, ya'ni yangi texnologiyalar eskilarini yo'qqa chiqarib yuborsa, yangi bizneslar esa eski turdagi biznes turlarining yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochib berishga xizmat qiladi.

Statistik ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak Koreya Respublikasining yalpi ichki mahsulot(YaIM) ko'rsatkichini 2019-2023-yillar oralig'ini tahlil qiladigan bo'lsak quyidagicha ko'rinish oladi:

- Janubiy Koreyaning 2019-yildagi YaIM miqdori 1,651.42 milliard dollarini tashkil etdi.
- Janubiy Koreyaning 2020-yildagi YaIM 1,644.31 milliard dollarini tashkil etdi,

¹ Daron Ajemo'g'lu va Jeyms A. Robinson. "Mamlakatlar tanazzuli sabablari".

bu 2019-yilga nisbatan 0.43% pasayishni anglatadi.
Janubiy Koreyaning 2021-yildagi YaIM 1,818.43 milliard dollarini tashkil etdi,
bu 2020-yilga nisbatan 10.59% o'sish demakdir.
Janubiy Koreyaning 2022-yildagi YaIM 1,673.92 milliard dollarini tashkil etdi,
bu 2021-yilga nisbatan 7.95% pasayishni anglatadi.
Janubiy Koreyaning 2023-yildagi YaIM 1,712.79 milliard dollarini tashkil etdi,
bu 2022-yilga nisbatan 2.32% o'sish demakdir. (1-jadvalga qarang)



1-jadval. Janubiy Koreyaning YaIM hajmi²

2020-yilga kelib COVID-19 pandemiyasi sababli YaIM 0,43% ga pastlashiga qaramay, so'ngi besh yilning uchtrasida mamlakatning bu ko'rsatkichi borasida o'sishga erishgan bo'lib, bu davlat YaIM ko'rsatkichi bo'yicha Osiyoda Xitoy, Yaponiya va Hindiston kabi yirik iqtisodiyotga ega

² <https://www.macrotrends.net/global-metrics/countries/KOR/south-korea/gdp-gross-domestic-product>

mamlakatlardan so'ng 4- o'rinda turadi.³ Shuningdek bu davlatda bandlik darajasi ham ancha yuqori hisblanadi. Xususan, 2024-yil holatiga ko'ra erkaklar uchun bandlik darajasi 70.9% ni tashkil etgan bo'lsa, ayollar orasida ushbu natija 54.7% ga teng bo'ldi.⁴ Erkaklarda bandlik darajasi ayollarga nisbatan ancha yuqori bo'lishiga qaramay, so'ngi yillarda Janubiy Koreyada ayollarning ish bilan bandlik ko'rsatkichi sezilarli o'sgan.

KXDR esa yopiq va avtoritar davlat bo'lgani uchun uning YaIM ko'rsatkichi haqida aniq ma'lumotlar mavjud emas. Biroq bu mamlakatdagilar qashshoqlikda, tadbirkorlarga xos tashabbuskorlik, kreativlik mavjud bo'lmagan sharoitda yoki malakali kasbga tayyorlaydigan talab darajasidagi ta'lim ko'rmasdan o'sadi. O'smirlar esa ularda xususiy mulk bo'lmasligini, biznes bilan shug'ullanolmasligini va farovonroq hayotga erisholmasligini biladi va natijada ko'pchilik aholi hayot kechirish uchun noqonuniy iqtisodiy faoliyatga qo'l uradi. Bu yerdagi yoshlar o'zlarining bilim va ko'nikmalaridan yetarli foydalana olmaydi, shaxsiy jamg'armalarini ham qonuniy ruxsatlar yo'qligi tufayli ishlata olishmaydi. Ular hattoki kelajakda qanday haq-huquqlarga ega bo'lishiga ham ishonchlari komil emaslar.⁵ Bundan kelib chiqadiki, bu davlat iqtisodiyoti juda ham past ko'rsatkichlarga ega bo'lib, juda ham sekin yoki umuman o'sishga erishmaydi.

Muammolar va yechimlar. Ekstraktiv institutlar doimo rivojlanishga bo'lgan imkoniyatlarni susaytiradi va yo'qqa chiqaradi. Bunga quyidagi muammolarni misol keltirish mumkin:

1. Quyi qatlamning inson kapitalidan to'liq foydalanmaslik:

•Hokimiyatning yuqori elita qo'lida yig'ilib qolishi, jamiyatdagi oddiy insonlarning iqtisodiy faoliyatda faol qatnashishiga to'sqinlik qiladi. Bundan tashqari ular o'z iste'dod va bilimlarini namoyon eta olmaydilar.

³ [CEOWORLD magazine - Latest](#) - [Stats Gate](#) - Countries With the Biggest Economy In Asia, 2024

⁴ <https://www.statista.com/statistics/1027699/south-korea-employment-rate-by-gender/>

⁵ Daron Ajemo'g'lu va Jeyms A. Robinson. "Mamlakatlar tanazzuli sabablari".

Bu esa ko'plab qobiliyatli insonlarga o'zining inson kapitallaridan to'g'ri foydalanish imkonini yo'qqa chiqaradi.

2. Yangi innovatsiyalarga rag'batning yo'qligi:

•**Markazlashgan va rejali tizimlar innovatsiya va yangiliklarga turli xil byurokratik to'siqlar qo'yib tashlaydi. Chunki vujudga keladigan yangiliklar va yangi texnologiyalardan oz sonli elita vakillari manfaatdor emaslar, shuning uchun aqlli kishilar va turli iqtidor egalari mamlakatni tark etishni xohlashadi.**

3. Yopiq iqtisodiyot va izolyatsiyalanganlik:

•**Iqtisodiyotning yopiq bo'lishi bu davlat xalqaro savdoda qatnashmasligi anglatadi. Import va eksport amalga oshirilmagan taqdirda, mamlakatdagi mahalliy ishlab chiqaruvchilar, ayniqsa monopoliyalar yanada o'z mavqeyini mustahkamlaydi. Bu esa yana iqtisodiy faoliyat yuqori elitaning qo'lida bo'lishini anglatadi.**

Yuqoridagi muammolarga tahliliy yechim bergan holda quyidagi yechimlarni keltirib o'tish mumkin:

1. Imkoniyatlar eshigining ochilishi:

•**Hukumat boshqaruv tizimlarning shaffofligini oshirgan holda, oddiy aholi qatlami uchun siyosiy va iqtisodiy faoliyatda ishtirok etishga imkon yaratib berishi kerak. Bu orqali ularning iqtisodiy tarraqqiy etishi osonlashadi.**

2. Byurukratiyani cheklash:

•**Mavjud imkoniyatlardan faqatgina yuqori elitadagilar foydalanishini cheklab, aksincha quyi qatlam uchun ham yengilliklar, o'z**

iste'dodlaridan foydalanish uchun rag'batlar yaratishi darkor. Buning uchun eng avvalo byukratiyani kamaytirish talab etiladi.

3. Cheklovlarga yo'l qo'ymaslik:

•Xalqaro savdodagi cheklovlarni olib tashlash, xorijiy investitsiyalar jalb qilish va import- eksport salohiyatini yaxshilash orqali iqtisodiy farovonlikka erishish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, institutlar davlatning nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shimoliy Koreya ham xuddi janubdagilar singari taraqqiyotga erishish uchun eng avvalo ekstraktiv tizimni asta-sekinlik bilan yumshatishi shart. Mamlakatlarning rivojlanishi, farovonligi, qoloqligi bu ulardagi institutsional tizimlar bilan chambarchas bog'liqdir. Yuqoridagi taklif va mulohazalar iqtisodiy taraqqiyot va farovonlikka erishishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Acemoglu, D., & Robinson, J. A. (2012). Why nations fail: The origins of power, prosperity, and poverty. Crown Business.
2. Olimova, M. (2024). *Iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish jarayonida institutlarning rolining nazariy jihatleri*. Academia.edu. https://www.academia.edu/108586972/Iqtisodiy_ijtimoiy_rivojlanish_jarayonida_institutlarning_rolining_nazariy_jihatleri
3. Abdullajonov, D. S. (2024). *Davlatning iqtisodiy o'sishida inklyuziv va ekstraktiv institutlarning o'rni*. Herald of Kokand University. https://herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/view/286
4. <https://www.macrotrends.net/global-metrics/countries/KOR/south-korea/gdp-gross-domestic-product>

5. [CEOWORLD magazine - Latest - Stats Gate](#) - Countries With the Biggest Economy In Asia, 2024
6. <https://www.statista.com/statistics/1027699/south-korea-employment-rate-by-gender/>